

TARIF REJALARIDA IJTIMOIIY TARMOQLAR UCHUN CHEKSIZ INTERNETNI CHEKLASH ORQALI FOYDALANUVCHI FAOLLIGINI TARTIBGA SOLISH

Tursunaliyeva Muhlisaxon Muxtorjon qizi

Namangan Davlat chet tillar instituti

E-mail: mkhlisamkhtarovnaa@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada mobil tarif tizimlari va raqamli kommunikatsiya muhitida cheksiz internet paketlarining foydalanuvchi faolligiga ta'siri tahlil qilindi. Tadqiqotning asosiy maqsadi ijtimoiy tarmoqlarga ortiqcha bog'lanishning oldini olishda cheklov (limit) siyosatining samaradorligini baholash hamda uning foydalanuvchi xulq-atvoriga ta'sirini aniqlashdan iborat bo'ldi. Tadqiqot davomida xorijiy davlatlarning tajribalari, xususan Fair Usage Policy (FUP) tizimi va trafikni boshqarish usullari o'rganildi. Shuningdek, statistik ma'lumotlar, foydalanuvchilar o'rtasida o'tkazilgan so'rovnomalar va shaxsiy kuzatuvlar asosida internet tarif siyosatining afzallik va kamchiliklari tahlil qilindi. Tadqiqot natijasida tarif siyosatini optimallashtirish, tarmoq yuklamasini kamaytirish hamda foydalanuvchilar uchun sifatli internet xizmatlarini ta'minlash bo'yicha amaliy takliflar ishlab chiqildi..

Kalit so'zlar: mobil tarif tizimi, cheksiz internet, ijtimoiy tarmoq, foydalanuvchi xulq-atvori, optimallashtirish, raqamli qaramlik, Wi-Fi, oylik abonent to'lovi.

REGULATION OF USER ACTIVITY THROUGH LIMITING UNLIMITED INTERNET ACCESS FOR SOCIAL NETWORKS IN TARIFF PLAN

Annotation. This article analyzes the impact of unlimited internet packages on user activity within mobile tariff systems and the digital communication environment. The main objective of the research was to evaluate the effectiveness of limitation policies in preventing excessive dependence on social networks and to determine their influence on user behavior. During the study, foreign experiences were examined, particularly the Fair Usage Policy (FUP) system and internet traffic management methods. In addition, the advantages and disadvantages of tariff policies were analyzed based on statistical data, user surveys, and personal observations. As a result of the research, practical recommendations were developed to optimize tariff policies, reduce network congestion, and improve the quality of internet services provided to users.

Keywords: mobile tariff system, unlimited internet, social media, user behavior, optimization, digital dependency, Wi-Fi, monthly subscription fee.

РЕГУЛИРОВАНИЕ ПОЛЬЗОВАТЕЛЬСКОЙ АКТИВНОСТИ ПОСРЕДСТВОМ ОГРАНИЧЕНИЯ БЕЗЛИМИТНОГО ИНТЕРНЕТА ДЛЯ СОЦИАЛЬНЫХ СЕТЕЙ В ТАРИФНЫХ ПЛАНАХ

Аннотация. В данной статье проанализировано влияние безлимитных интернет-пакетов на пользовательскую активность в условиях мобильных тарифных

систем и цифровой коммуникационной среды. Основной целью исследования стало определение эффективности политики ограничений (лимитов) для предотвращения чрезмерной зависимости от социальных сетей, а также изучение её влияния на поведение пользователей. В ходе исследования были изучены зарубежный опыт, в частности система Fair Usage Policy (FUP) и методы управления интернет-трафиком. Кроме того, на основе статистических данных, результатов опросов пользователей и личных наблюдений были проанализированы преимущества и недостатки тарифной политики. По итогам исследования были разработаны практические предложения по оптимизации тарифной политики, снижению нагрузки на сеть и обеспечению качественных интернет-услуг для пользователей.

Ключевые слова: *мобильная тарифная система, безлимитный интернет, социальные сети, поведение пользователей, оптимизация, цифровая зависимость, ежемесячная абонентская плата.*

KIRISH

XXI asrda internet va veb-saytlar 30 yil ichida ajoyib global o'sishga erishdi. Ijtimoiy tarmoqlar esa oxirgi o'n yillikning o'ziga xos burilish nuqtasiga aylandi. Qisqa vaqt ichida yoshlar, kattalar va o'smirlar bunday saytlarning faol foydalanuvchilariga aylanishdi. Bu esa dunyo olimlarini aynan mana shu o'sish sabablarini topishga undadi.[9] Odamlar ijtimoiy tarmoqlar orqali do'st orttirishdan tortib, internet orqali daromad topishgacha bo'lgan imkoniyatlardan foydalanmoqda. Bunga har qadamda uchraydigan internet-do'konlarni misol qilish mumkin.

Mobil internet xizmatlarining keng tarqalishi va tarif rejalarda cheksiz internet paketlarining joriy etilishi foydalanuvchilar faolligini yanada oshirdi. Biroq ijtimoiy tarmoqlardan haddan tashqari foydalanish vaqtni boshqarish, ta'lim samaradorligi hamda ijtimoiy hayot muvozanatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shuning uchun aloqa operatorlari va kompaniyalari tomonidan ajratilayotgan internet paketlarini tartibga solish kun talabi bo'lib qolmoqda.

Tarif — muayyan xizmat, mahsulot yoki bajarilgan ish uchun belgilangan narxlar tizimi yoki stavkasidir. Iqtisodiyot va kundalik hayotda u xizmat haqi, bojxona to'lovi yoki shartnoma shartlarini anglatadi. Uyali aloqa kontekstida esa operatorlar yoki internet provayderlar tomonidan ma'lum vaqtga, internet hajmi (MB, GB) yoki xizmatlar to'plami (qo'ng'iroqlar, SMS) asosida belgilanadigan narx tizimi tarif hisoblanadi.

Tarif siyosati iqtisodiyotda narx belgilashning asosiy vositasi bo'lib, iste'molchi ehtiyojlariga qarab xizmat hajmi va to'lov usullarini optimallashtiradi. Hozirda bu tushuncha aloqa operatorlarida ham o'z o'rniga ega: abonent to'lovi (belgilangan davriy to'lov), limit (belgilangan xizmat hajmi) va limitdan oshgan holatlar uchun qo'shimcha narxlarni o'z ichiga oladi. Tarif siyosati resurslarning (internet trafigi, elektr energiyasi, suv) isrofgarchiligini kamaytiradi, chunki iste'molchilar o'z ehtiyojlariga mos rejani tanlab, mablag'ni tejaydi [1].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Ijtimoiy tarmoqlar internetning ajralmas qismiga aylanib, global miqyosda 5,66 milliard foydalanuvchini qamrab olgan. Bu ko'rsatkich dunyo aholisining taxminan 69 foizini tashkil etadi [6]. Tarmoqlarning internet bilan bog'liqligi kirish darajasi, kunlik sarflanadigan vaqt hamda platformalar xilma-xilligi bilan namoyon bo'ladi. O'rtacha foydalanuvchi kuniga 2 soat 24 daqiqa (144 daqiqa) vaqtini taxminan 7 tagacha platformaga sarflaydi [6].

2020-yilda COVID-19 pandemiyasi tufayli o'smirlar Telegram ijtimoiy tarmog'idan foydalanishni boshlashdi. Agar 2019-yilda Telegram 119 million obunachini yig'gan bo'lsa, 2020-yilda unga 300 millionga yaqin yangi foydalanuvchilar qo'shildi. Onlayn ta'lim tufayli internet xizmatlariga talab sezilarli darajada oshdi. Shu sababli aloqa operatorlari tarif rejalaridagi MB va GB hajmini ko'paytirib, internet paketlari narxlarini arzonlashtirdi.

Masalan, "Mobi 90" tarifida internet hajmi 18 GB dan 65 GB gacha oshirildi [2]. Keyinchalik foydalanuvchilarni jalb qilish maqsadida kompaniyalar cheksiz paketlar siyosatini yo'lga qo'ydilar.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Cheksiz internetning joriy etilishi foydalanuvchilar faolligini sezilarli darajada oshiradi. Internet paketi tugashidan xavotir olmagan insonlar videolarni yuqori sifatda ko'rish, virtual o'yinlar o'ynash va bulutli xizmatlardan ko'p foydalanishi mumkin — bu esa tarmoq trafiginu bir necha barobar ko'paytiradi. Foydalanish faolligining o'zgarishi bir nechta asosiy yo'nalishda namoyon bo'ladi: birinchidan, multimedia iste'molining ortishi (matnli kontentdan 4K formatidagi videolarga, "jonli" efir platformalariga o'tish); ikkinchidan, katta hajmli fayllar

yuklanmasining ko'payishi; uchinchidan, "smart" tizimlari va fon rejimida ishlaydigan qurilmalarning uzluksiz trafik sarflashi.

Zamonaviy foydalanuvchi kuniga o'rtacha 6–7 soat vaqtini onlayn o'tkazadi va asosiy e'tibor mobil trafiklarga qaratilgan. Agar trafik cheklanmagan bo'lsa, foydalanuvchida ijtimoiy tarmoqlarga qaramlik kelib chiqishi mumkin. Masalan, o'smir yoshdagilar o'z shaxsiy blogiga kuniga ikki marta kiradi, post joylasa yoki turli ma'lumotlar ulashsa, bu ko'rsatkich kuniga 6 martagacha oshadi. Bu qaramlikning ilk ko'rinishi. Yaqinda ommaviy madaniyat tushunchasiga aylangan "24/7" termini ham aslida internetdan cheksiz foydalanishning oqibatidir [5].

O'smir "24/7" qisqa videolar (reels) ko'rish orqali ham diqqatini, ham vaqtini yo'qotadi, chunki u endi ta'limiy maqsadlardagi uzun podkastlarni tinglay olmaydi. Uzun ma'lumotlarni tinglay olmaganlar matnli kontentlarni ham o'qiy olmaydi va bu o'z-o'zidan kitob o'qiy olmaslikka sabab bo'ladi. Natijada, yosh avlod ilmsiz, ko'rganini tahlil qilmaydigan, yolg'on axborotga ham tezda ishonadigan va aldanadigan bo'lib qoladi. Bu haqda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati Madina Baratova ham ta'kidlagan: "Yoshlarning axborotga bo'lgan ehtiyojini qondirish har qachongidan ko'ra dolzarb ahamiyat kasb etayotgan ekan, ularga atrofda sodir bo'layotgan voqealar haqida haqqoniy ma'lumotga ega bo'lishlarini ta'minlash, ularga internet platformalaridagi ko'plab axborotlar yot g'oyalari bilan to'ldirilganligini tushuntirishimiz lozim va bu hammamizning eng asosiy vazifamizga aylanishi kerak". Internet tarmoqlarida cheklov o'rnatish oqilona qaror hisoblanadi. Hozirda vatanimizda ommaviy internet tarmoqlariga ma'lum cheklovlar joriy etilgan. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi tomonidan diniy ekstremistik, terroristik va aqidaparastlik g'oyalari bilan bog'liq internet manbalari taqiqlangan. Bu chora- tadbirlar ayniqsa yoshlarni xavfli kontentdan himoyalashga qaratilgan.

Internet cheklovining foydalaridan biri yosh foydalanuvchilarda shaxsiy ma'lumotlar va resurslarni boshqarishning psixologik vositasidir. Limitlar ortiqcha sarf-xarajatlarning oldini oladi, vaqtni mazmunli o'tkazishga yordam beradi va virtual olamga qaramlikni kamaytiradi.

Shaxsiy kuzatuv sifatida ta'kidlash mumkinki, zamonaviy tarif rejaları foydalanuvchilarning internetdagi faolligini sezilarli darajada oshirmoqda. Masalan, muallif foydalanayotgan operatorning "Oila" tarif rejasida oyiga 225 GB internet, ijtimoiy tarmoqlar va messenjerlar uchun cheksiz trafik hamda tungi cheksiz internet xizmati mavjud. Tarif narxining 155 ming so'mni tashkil etishi foydalanuvchiga uzoq vaqt davomida internetdan foydalanish imkonini beradi. Biroq ayrim foydalanuvchilar tungi internet xizmatidan amalda foydalanmasligi mumkin. Natijada tarif tarkibidagi ushbu xizmatdan yetarli darajada foydalanilmagani sababli mablag'ning bir qismi samarasiz sarflanadi. Shu bois muallif mazkur tarif rejasidan voz kechish qarorini qabul qilgan. Bu esa internet xizmatlaridan foydalanishda ehtiyoj va manfaatdorlik darajasini hisobga olish muhim ekanligini ko'rsatadi.

Ko'plab rivojlangan mamlakatlarda cheksiz tariflar va limitli paketlar parallel ravishda taklif qilinib, abonentlarga o'z ehtiyojidan kelib chiqib narx tanlash huquqi berilgan. AQSh va Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida internet xizmatlari provayderlar (ISP) tarmoqni boshqarish qoidalariga amal qiladi: pik vaqtlarda limitlar orqali server yuklamasi kamaytiriladi, bu esa barqaror va tez ulanishga imkon beradi [7].

Hozirda xorijiy statistika va tendensiyalar "sifat-vaqt" (Digital Well-being) bosqichiga o'tgan. AQShda o'rtacha foydalanuvchi oyiga 15–20 GB mobil trafik sarflaydi va asosan jamoat joylaridagi Wi-Fi tarmoqlaridan foydalanadi. G'arbda odamlar o'z vaqtini tejash uchun "Internet blackout" (internetdan to'liq uzilish) amaliyotini joriy qilmoqda. Statistika ko'ra, bu ish samaradorligini 20 foizga oshiradi. "Fair usage policy" amaliyotida operatorlar cheksiz internet taqdim etsada, ma'lum bir limitdan so'ng tezlikni pasaytiradi.

Foydalanuvchilar buni bilgani holda, trafikni sifatli video kontentlar ko'rish o'rniga matnli xabarlarni o'qish bilan tejashadi.

Bundan tashqari, "Oila" tarif tizimi ham Yevropadan o'zlashtirilgan bo'lib, bir oilaning bir necha a'zolari bitta tarifga to'lov qilish orqali ajratilgan paketlardan foydalanishi mumkin. Ilovalarning yangilanishlari faqat Wi-Fi orqali amalga oshirilishi esa foydalanuvchilarning ortiqcha internet va mablag' sarflashini

kamaytiradi. Bu tadbirlar vatanimizda ham qo'llanilmoqda va foydalanuvchilarning 30–40 foiz mablag'ini tejashga yordam bermoqda.

Xorijiy tajribalarni tahlil qilish asosida quyidagi amaliy takliflarni kiritish mumkin:

1. Ish vaqtidan tashqari xodimlarga ish yuzasidan xabar yozishni cheklash: xodimning oilasi bilan vaqt o'tkazishiga va farzandlarini nazorat qilishiga zamin yaratish;

2. Talaba va o'quvchilar uchun internet saytlari orqali bajariladigan topshiriqlarni darsdan tashqari vaqtga yuklamaslik: darsdan tashqari vaqtlarda internetda vaqtni noto'g'ri sarflashning oldini olish;

3. Davlat va ta'lim platformalari uchun kirishni kengaytirish: cheksiz internetni ta'limiy maqsadlar uchun yo'lga qo'yish, bonuslarni elektron kutubxonalar uchun ajratish va bu orqali kitobxonlikni kuchaytirish, qaramlikni kamaytirish; Jamoat Wi-Fi tarmog'ini kengaytirish va uni ko'plab jamoat joylariga tatbiq qilish orqali aholining shaxsiy mobil paketlariga sarflaydigan xarajatini taxminan 25 foizga qisqartirish;

4. Har oy oxirida sarflangan trafik va obunalar uchun ketgan mablag'ni tahlil qilib, foydalanilmagan trafik uchun pul to'lamaslik siyosatini optimallashtirish;

5. Cheklovdan keyin foydalanuvchilarga vaqtlarini to'g'ri taqsimlashni o'rgatish, interaktiv va ta'limiy o'yinlar taklif etish.

6. Umumiy trafik orqali ishlamaydigan ilova yoki saytlarga VPN orqali kirishni oldini olish maqsadida Play Market yoki App Store sozlamalarida taqiqlangan ilovalarni yuklashni cheklash uchun nazorat o'rnatish.

XULOSA

So'nggi yillarda O'zbekistonda minimal internet trafik hajmining oshishi va cheksiz paketlarning kengayishi ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish hamda umumiy internet iste'molining ortishiga olib kelmoqda. Shu sababli internet trafikini maqsadli taqsimlash, ya'ni ijtimoiy tarmoqlar, YouTube va boshqa xizmatlar uchun cheklangan internet paketlarini ajratish hamda qolgan qismni ta'limiy va foydali platformalarga yo'naltirish samarali yechim bo'lishi mumkin.

Internet xizmatlaridan foydalanishda ehtiyoj va manfaatdorlik darajasini hisobga olish muhim. Ko'ngilochar kontent uchun sarflanayotgan mablag'ni ta'limiy maqsadlarga yo'naltirish shaxsning intellektual rivojlanishiga ko'proq xizmat qiladi. Masalan, tarif uchun to'lanadigan mablag' evaziga kitob xarid qilish yoki xorijiy til o'rganish kurslarida qatnashish imkoniyati mavjud. Bunday yondashuv internetdan oqilona foydalanishni ta'minlab, yoshlar orasida ortiqcha ijtimoiy tarmoq iste'molini kamaytiradi va raqamli muhit xavfsizligini oshiradi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES)

1. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Iqtisodiyot bo'limi ma'lumotlari. — Elektron manba: <https://nbu.uz>
2. Beeline O'zbekiston. "Ko'proq internet-trafik taqdim eta boshladi". 01.04.2021. — Elektron manba: <https://beeline.uz>
3. Beeline O'zbekiston. Cheksiz internet va tarif rejaları bo'yicha xizmatlar. — Elektron manba: <https://beeline.uz/uz/products/tariffs>
4. UzDaily. "Tariffs for external channel for operators and providers falls by 34% in 2020". 15.02.2020. — Elektron manba: <https://www.uzdaily.uz>
5. Virtual qaramlik va shaxs. — WOS Journals, 06.02.2026. Elektron manba: <https://wosjournals.com>
6. DataReportal. Digital 2024: Global Overview Report. — Elektron manba: <https://datareportal.com/reports/digital-2024-global-overview-report>
7. European Commission. Internet traffic management and net neutrality. — Elektron manba: <https://ec.europa.eu/digital-strategy>
8. Przybylski A.K., Weinstein N. A Large-Scale Test of the Goldilocks Hypothesis: Quantifying the Relations Between Digital-Screen Use and the Mental Well-Being of Adolescents. — Psychological Science, 2017. Vol. 28(2). P. 204–215.
9. Madina Bahrinova. Ijtimoiy tarmoqlar va ulardan yoshlarning foydalanishi. 2020-yil Educational Research in Universe Science.176-bet(Social media and youth use that)